

Norboyeva Zarina

Toshkent Davlat Sharqshunoslik
Universiteti Turkshunoslik fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi

2- kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi, asarlarining o'ziga xos xususiyatlari, XX asr siyosatining Qodiriy asarlarida bayon etilishi, qatag'onchilik siyosati xalqning ahvoli, Qodiriyning millatni uyg'otish yo'lidagi say harakatlari haqida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy She'rlari, "Taqqdir etarlik bir ish xabarnomasidagi maqola", "O'tkan kunlar", "Mexrobdan chayon" singari tarixiy asarlari, jurnallardagi faoliyati, "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" monografiyasi, "Obid ketmon" qissasi, tarjima asarlari, Qozon shahrida bo'lib o'tgan Tatariston yozuvchilarining 1-Qurultoyi, suddagi nutqlar.

Kelingiz yoshlar, bu kun g'ayrat qiling,

Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz...

Biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz.¹⁰

Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda bog'bon oilasida dunyoga keldi. "Boshida boy oilada tug'ildimmi yoki kambag'al oiladami, albatta, bilmadim, –deb yozadi A.Qodiriy, – ammo yoshim 7-8ga yetgach, qornim oshgato'ymog'onidan, ustim tuzukroq kiyim ko'rmaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog'i faqat 80 yoshli bir chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog'ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog' mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochliqqa duch kelib, qishi bilan jovrashib chiqar ekanmiz". Abdulla bolaligidayoq zehni o'tkir, o'qish-o'rganishga mehr-ishtiyoqi baland bo'lgan. Ammo oiladagi moddiy muhtojlik tufayli bir oz kechikib, 9-10 yoshlarida maktabga boradi. Ikki-uch yil eski maktabda o'qigach, 12 yoshida uni oiladagi nihoyatda qashshoqlik vajidan bir boyga xizmatchilikka beradilar. Xo'jayin savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuvni biladigan odamga muhtoj edi. Abdullaning zehni, o'qishga ishtiyoqini sezgan savdogar uni rus-tuzem maktabiga yuboradi. Ham o'qish, ham o'qishdan keyin xo'jayin qo'lida ishlash Abdulla uchun og'irlik qiladi, maktabga yaxshi bilim ololmaydi. Bu hol ikki davom etadi. So'ng bunga chidolmay, ota-onasiga yolvorib o'z uyiga qaytib keladi, shu yerda turib o'qishga qatnaydi. O'qishdan bo'sh vaqtlarida akasi yoniga kirib toqichilik hunarini o'rganadi. Ikki-uch yil shu toqichilik va bog' ishlari bilan band bo'ladi. Bolalikda egallagan bu

¹⁰ Abdulla Qodiriy. Yoshlar Nashriyot Uyi. Toshkent 2022

hunarlarini, ayniqsa, bog'dorchilikni u bir umr tark etolmaydi. Adib o'z asarlarida mo'tabar onasi Josiyat bibi siymosidan ham prototip sifatida foydalangan bo'lishi tabiiy. 1912-yilda manufaktur bilan savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so'm barobarida prikazchilik bo'lib kirdim. Shu miyonlarda bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadirg'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga iymon keltirdim. 1913-yilda o'zbekcha "sadoyi Turkiston", "Samarqand" "Oyna" gazetalari chiqa boshagach, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi. Uning "Axvolimiz", "Millatinga", "To'y" kabi she'rlari ham Oyna gazetasida bosilib chiqqan. 1913-yilda chiqqan "Padarkush" ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim. (1915-yil) Yana shu yillarda "Juvonboz" otlig' hikoyachani yozib noshir topolmog'onimdan o'zim nashr qilib yubordim.¹¹

Abdulla Qodiriy 1914-yil Rahbarbonu Rasulmuhammad qiziga uylanadi. Ulardan Nazifa, Habibulla, Adiba, Ma'sud, va Anisa ismli uch qiz va ikki o'g'il farzandli bo'lishadi. 1924-yil 15-sonida bosilgan "Taqdir etarlik bir ish" deb nomlangan xabar maqolada shunday ma'lumotlar bor: "Eski shahar vaqf bo'linmasi Julqunboyni o'z ta'minotiga olib, Moskvaga o'qushqa yubordi. Jo'natish oldidan besh oylik maoshini qo'liga naqd berub, bir oylik mukofotini ham berdi. Iqtisodiy idoralarimizning shunday qadr qilib, qilg'on himmatlarig'a ofarin deymiz va o'rtog'imiz Julqunboyg'a muvaffaqiyat tilab, o'zi uzoq ketsa ham, qalamining yaqinda turishini umid qilamiz". Demak, Abdulla Qodiriy "eski shahar vaqf bo'linmasi" hisobidan, uning iqtisodiy yordami bilan Moskvaga o'qishga ketadi. Bu haqida Qodiriy "Moskva xatlari" turkumini yozadi.¹² Sh tariqa Abdulla Qodiriy 1924-yil iyundan 1925-yil iyun oylariga qadar Moskvada o'qiydi. Moskvadan qaytib "Mushtum" jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlaydi. Uning "Toshpo'lat tajang nima deydi" va "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" turkumidagi satiric hikoyalari bosilib chiqadi. Bu vaqt oralig'ida yozilgan asarlarini u har xil – Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Mahzum, Toshpo'lat, Ovsar, Dumbul, Shig'oy degan imzo-taxalluslar bilan e'lon qilgan. Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab "O'tkan kunlar" romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922-yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda "O'tkan Kunlar" uch bo'lim holida kitob bo'lib nashr etildi. "O'tkan kunlar" romani ingliz tilida 2019-yil 11-aprel kuni chop etildi. Bu asar tarjimoni Mark Riss fikricha bu roman G'arb o'quvchilari uchun yangilik bo'lgan turf axil an'analar tasviri, terminlar va tarixiy davrga xo hikoyalari juda ko'p.¹³ Bu roman menga Uilyam Folkner va Jeyms Joys asarlarini eslatadi. Har ikki ijodkorning prozasi juda boy va bir bir o'qishda anglab yetish murakkab. Bu uch muallif taxminan bir paytda yashab, yangicha g'oyalar silsilasida ijod qilgan va ayni damda, asarlarida o'tmishga nigoh tashlab, zamonasining qiyofasi bilan taqqoslaganlar. Ular o'z davridagi

¹¹ <https://proc.uz/allomalar/abdulla-qodiriyning-hayoti-va-ijodi>

¹² <https://saviya.uz/hayot/nigoh/abdulla-qodiriy-haqida/>

¹³ <https://voicesoncentralasia.org/the-uzbek-modernist-abdullah-qodiriy-a-writer-and-his-novel/>

yangilanishlardan rohatlangan, shuhratga ko‘milganlar va shu bilan birga, tanqidlardan ham hayiqmagan deb fikr bildiradi tarjimon Mark Riss. 1928-yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani “Mexrobdan chayon” nashrdan chiqdi. 1934-yilga kelib qishloq xo‘jaligi mavzusiga bag‘ishlab “Obid ketmon” qissasini yaratdi. «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li» monografiyasi muallif Oybek ham «Obid ketmon»da zamonning musbat tiplarini yaratilishi Obid ketmon obrazi o‘sha davr adabiyotida yaratilgan realistlik obrazlardan biri bo‘lib, faqat yozuvchigina emas, butun o‘zbek adabiyotining vutug‘i edi deb yozadi.¹⁴ Bundan tashqari u Gogolning “Uylanish”, Chexovning “Olchazor” va boshqa g‘arb yozuvchilarining satirik hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. 1926-yilda “Mushtum” jurnalida chiqqan “Yig‘indi gaplar” maqolasida yuqori rahbarlarga tegadigan qaltis gaplari uchun, ayrim mutaham hamkasablarining chaquvlari oqibatida 1926-yil 8- mart kuni qamoqqa olindi. 1926-yil 15-17-iyunda bo‘lib o‘tgan sudda quyidagilarni so‘zlaydi:

So‘zim oxirida odil suddan so‘rayman. Garchi men turli bo‘hton, shaxsiyat va soxtalar bilan, ikkinchi oqlanmaydurg‘on bo‘lib qoralandim. Loaqal ularning qoralovchi qora ko‘zlarning ko‘ngli uchun bo‘lsa ham bo‘lsa ham, menga eng oliy bo‘lg‘on jazoni bera ko‘ringiz. Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmog‘on sodda, go‘l, vijdonlik yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma‘naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so‘rayman. 1926-yil 16-iyun. Samarqand”. Shundan so‘ng uning matbuotdagi faolligi nisbatan susayadi. 1936-yil iyul oyida Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan Tatariston yozuvchilarining 1-Qurultoyida ishtirok etadi.¹⁵ Kolxoz hayotidan olib yozmoqchi bo‘lgan yangi asariga manbalar to‘plash uchun Toshkent atrofidagi qishloqlarni kezadi, ijod bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ammo mustabid tuzum uning qadriga yetmay, qayta dushmanga chiqaradi. Adib 1937-yil 31-dekabrda hibsga olinadi. Qodiriy tergov mahali ham: Menga qo‘yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo‘lida har qanday jazodan, qiynoqdan qo‘rqmayman. Agar otmoqchi bo‘lsalaring ko‘kragimni kerib turaman. Adib o‘zining “Har kim bir nima yozar ekan, oldin vijdonini tarozu qilsinda, Qalam yuritsin”, Qo‘rqoqlik vijdonsizlikdir kabi so‘zlariga hayoti davomida amal qiladi. U uzoq tergovlardan keyin hech biri aybi isbotlanmagan holda 1938-yil 4 -oktabrda xalq dushmani sifatida qatl etiladi. 1958-yildan boshlab, uning qutlug‘ nomi asarlari xalqqa qaytarila boshlandi. 1991-yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e‘lon qilingandan so‘nggina Abdulla Qodiriy ga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatila boshlandi, Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti va “Mustaqillik” ordeni bilan taqdirlandi.

Abdulla Qodiriy millat ahvolini o‘nglash uchun yoshlar g‘ayratidan, hammaslamlari bo‘lgan ziyolilar shijoatidan umid qiladi. Millatni ulug‘lash, ma‘rifatni ulug‘lash, ilmga

¹⁴ O‘zbek adabiyoti tanqidchiligi tarixi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2012

¹⁵ <https://oyina.uz/uz/article/721>

davat-bular barchasi jaded davri adabiyotining asosiy motivi bo'lib hisoblangan. Abdulla Qodiriy asarlarining har bir qismi o'zbek mumtoz adabiyoti uchun eng bebaho yodgorlik hisoblanadi. Adib O'zbek tili kambag'al emas, o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar. SHuningdek, insonda husn bo'lsa-ku, aql, zakovat bo'lmasa, u qog'ozdan yasalgan gulag o'xshaydi deb yozilgan fikrlarini nafaqat o'sha zamon uchun hozirgi davr uchun ham muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ahosi tarkibining 70% ini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak ularning ma'naviyatini kengaytirish, turli xil buzg'inchi g'oyalar va oqimlarga kirishini ularning ongidagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirishda Abdulla Qodiriyning asarlari o'zni beqiyosdir. Bugungi kunda butun dunyo bizning qanchadan qancha buyuk adiblarimiz bobakolonlarimiz borligini bilmoqda. Adabiyot, san'at hech qachon mamlakat, davlat, tanlamaydi mohirona yozilgan asarlar shuning uchun dunyo bo'ylab turli tillarga tarjima qilinadi. Ilmiy zukko yoshlar mamlakat kelajagining poydevorlari hisoblanadi. Dunyoda rivojlanishning eng cho'qqisiga intilayotgan har bir davlat yoshlarining taqdiriga e'tibor qaratadi. Amir Temur "Temur tuzuklari" da boshingga qilich kelsa ham rost gapir deb yozgan edi. Haqiqat yo'lini tutgan Qodiriy ham umrining so'ngiga qadar rost gapirishga harakat qilishi biz yoshlar uchun o'rnak hisoblanadi. Jahon adabiyotida uslub jihatidan farq qiladigan beshta romanchilik maktabi sayqallanib ko'zga tashlanib turadi. Ular ingliz, fransuz, nemis, rus va hind romanchilik maktablaridir. Endi oltinchi romanchilik maktabi yaratildi. Bu maktabni yaratgan Abdulla Qodiriydir deb yozadi Yevgeniy Bertels rus sharqshunos olimi. O'zbek onasi yaqin o'rtada ikkinchi Abdulla Qodiriyning tug'masa kerak deb yozadi Abdulhamid Cho'lpon. Bunga o'xshash e'tiroflarning soni juda ko'p. Tarix o'tmishdan xabar beradi va kelajak ham tarixdan yaraladi. Abdulla Qodiriy mustabid tuzumi haqida o'z tarixiy asarlarida ma'lumotlar berib boradi. Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish orqali nafaqat tarixni o'rganimiz balki badiiy asar o'qigandek fikrlash dunyomizni ham kengaytiruvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Prezedentimiz Shavkat. Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz albatta bo'ladi".¹⁶ Bugungi kunda yoshlar siyosati davlat siyosati darajasiga tenglashtirilayapti. Yoshlarni har tomonlama yetuk malakali kadr bo'lishlari uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda. Biz yoshlar o'z tariximizni adiblarimizni ijodini to'liq o'rganishimiz kerak buning uchun mehnat qilishimiz kerak. Shunda buyuk kelajakka albatta bizniki bo'ladi.

¹⁶ Sh. Mirziyoyev. 2017-yil 3 avgust. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari uchrashuvidagi nutqi

1. Abdulla Qodiriy. Yoshlar Nashriyot Uyi. Toshkent 2022
2. <https://proc.uz/allomalar/abdulla-qodiriyning-hayoti-va-ijodi>
3. <https://saviya.uz/hayot/nigoh/abdulla-qodiriy-haqida/>
4. <https://voicesoncentralasia.org/the-uzbek-modernist-abdullah-qodiriy-a-writer-and-his-novel/>
5. O'zbek adabiyoti tanqidchiligi tarixi. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2012
6. <https://oyina.uz/uz/article/721>
7. Sh. Mirziyoyev. 2017-yil 3 avgust. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari uchrashuvidagi nutqi